



G'AFUR G'ULOMNING TARJIMONLIK FAOLIYATI HAMDA UNING AHAMIYATI

Usmonov Ibrohim Alisher o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi
email: usmonov8712@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18539250>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi O'zbekiston xalq shoiri – G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati keng va tizimli tahlil qilinadi. Unda adibning badiiy tarjimaga bo'lgan munosabati, ijodiy jo'shqinligi, tarjimada milliy ruhni saqlash masalalari, tabdil hodisasiga yondashuvi hamda Sharq va G'arb adabiy an'analari uyg'unligi tahliliy yoritiladi. Maqolada adabiyotshunos va tarjimashunos olimlar fikrlari, G'afur G'ulom tarjimalaridan aniq misollar orqali muallifning tarjimonlik maktabi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: G'afur G'ulom, badiiy tarjima, tarjimashunoslik, tabdil, milliy ruh, Rudakiy, Sharq adabiyoti.

O'zbek adabiyotida badiiy tarjima adabiy jarayonning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Tarjima nafaqat boshqa xalqlar adabiyotini o'zlashtirish vositasi, balki milliy adabiyotning ichki imkoniyatlarini kengaytiruvchi ijodiy maktab vazifasini ham bajaradi. Adabiyotshunos Zuhridin Isomiddinov ta'kidlaganidek, o'zbek adabiyotida tarjima bilan shug'ullanmagan ijodkorni topish mushkul. Biroq ayrim adiblar borki, ular tarjima orqali tanilgan bo'lsa, yana bir toifa ijodkorlar bor, ular tarjima bilan muntazam shug'ullanganiga qaramay, avvalo sof milliy ijodkor sifatida e'tirof etiladi. G'afur G'ulom ana shunday ijodkorlar safidan munosib o'rin egallaydi.

G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati uning shoir, nosir va publitsist sifatidagi ijodi soyasida qolib ketgandek tuyulsa-da, aslida bu yo'nalish uning adabiy dunyoqarashi, til va badiiyat haqidagi qarashlarini anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi.

Asosiy qism

G'afur G'ulom tarjima sohasiga XX asrning yigirmanchi yillari oxirida kirib keldi. Uning Vladimir Mayakovskiyning "Vo ves golos" poemasi "Hayqiriq" nomi bilan o'zbek tiliga tarjima qilishi adibning zamonaviy jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi. Keyinchalik Hodi Toqtosh, Antal Gidash, Pushkin, Lermontov, Shevchenko, Shiller, Shekspir kabi adiblar asarlarini o'zbekchallashtirishi G'afur G'ulom tarjimonlik doirasining nihoyatda kengligini tasdiqlaydi.

G'afur G'ulom tarjimalarining muhim jihati shundaki, u tarjimini ikkilamchi ijod deb emas, balki mustaqil badiiy jarayon sifatida baholagan. U ona tilining ifoda imkoniyatlariga cheksiz ishongan. Shoislom Shomuhamedov xotiralarida keltirilgan "O'zbekmisan? Top!" degan qat'iy so'zlar G'afur G'ulomning tarjimadagi asosiy prinsipini ifodalaydi. Ya'ni tarjimon boshqa tildagi murakkab fikr va obrazlarni o'zbek tilida ham topa olishi, buning uchun tilning ichki boyliklariga suyanishi lozim.

Adib tarjima jarayonida so'zma-so'zlikdan qochgan, ammo erkinlikni haddan oshirmagan. Uning tarjimalarida muallif ruhini saqlash birinchi o'ringa qo'yiladi. Shu bois G'afur G'ulom tarjimalarini o'qigan kitobxon asar muallifining qaysi davr va qaysi adabiy muhit vakili ekanini bemalol sezadi. Bu esa tarjimonning katta badiiy yutug'idir.

G'afur G'ulomning Sharq adabiyotiga munosabati alohida e'tiborga loyiq. U Bedil, Sa'diy, Jomiy, Rudakiy kabi mutafakkir shoirlar ijodidan chuqur ta'sirlangan. Biroq Bedil asarlarini keng tarjima qilishdan tiyilgani uning tarjimaga mas'uliyat bilan yondashganidan dalolat beradi.

G'afur G'ulom tabdil usulidan ham samarali foydalangan. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan "Farhod va Shirin" dostonini hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilishi katta madaniy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu orqali mumtoz asar oddiy kitobxon uchun yanada tushunarli bo'ldi. Tabdil jarayonida adib mazmunni soddalashtirgan bo'lsa-da, asarning badiiy ruhi va asosiy g'oyasini saqlab qolishga erishgan. Bu tajriba tarjimashunoslikda alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muhim hodisadir.

Rudakiyning "Qarilikdan shikoyat" qasidasiga qilingan tarjima G'afur G'ulom tarjimonlik mahoratining yorqin namunasi hisoblanadi. Tarjimada ayrim obrazlar o'zbek kitobxoniga yaqinroq bo'lgan muqobillar bilan almashtirilgan. Biroq bunday almashuv asar mazmuni va badiiy qiymatiga putur yetkazmagan. Aksincha, asarning falsafiy ruhi va poetik ohangi saqlangan. Bu hol tarjimonda ijodiy jur'at bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Chunki tarjimon faqat vositachi emas, balki ijodkor sifatida namoyon bo'lishi lozim. G'afur G'ulom Ro'dakiyning "Qarilikdan shikoyat", Shota Rustavelining "Yo'lbars terisidagi pahlavon" dostonidan boblar, Sa'diyning "Guliston" asarining she'riy qismini, Jomiy va Foniylar g'azallarini, Bedilning ikki ruboiysini, shuningdek I.Krillov masallarini, A.Griboyedovning "Aqllilik balosi" dan parchani, Pushkinning talay she'r va poemalarini, T.Shevchenko, A.Tolstoy, A.Fet, A.Maykov, N.Nekrasov, Jambul va Sulaymon Stalskiy, A.Surkov, Lohutiy, I.Bexer, V.Mayakovskiy, I.Frenkel, L.Xyuz, A.Tvardovskiy, M.Tursunzoda, A.Kuleshov, K.Simonov she'rlarini, o'nlab turli xalqlarning qo'shiqlarini o'zbekchalashtirdi.

Vilyam Shekspirning "Otello" tragediyasi, Lope de Viganing "Qo'zibuloq qishlog'i", Fridrix Shillerning "Vilhelm Tell" dramalari G'afur G'ulom tarjimasida sahna yuzini ko'rgan. Shu bilan bir qatorda V.Katayevning "Soldat frontdan qaytarkan", B.Lavryonovning "Dengizdagilar sharafiga", Nozim Hikmatning "Bir sevgi afsonasi", G.Mdivanining "Front bo'ylab buyruq", B.Slivkoning "Mushfiqiy" pyesalarini ham o'zbekchalashtirgan. Ammo hali bu ro'yxatga qo'shilmagan yana o'nlab poemalar, teatr va radiopostanovkalar uchun turli yillarda tarjima qilingan drama asarlari ham behisob. Bularning barchasiga xos bo'lgan bir jihat, ta'bir joiz bo'lsa, G'afur G'ulomning "o'girmachilik uslubi" shundayki, ushbu tarjimalar tili sodda, ifodasi jaydari va o'zbekona. G'afur G'ulom hech bir o'rinda tarjima tilini zo'riqtirmaydi, murakkab va gajakdor iboralar bilan o'zbek o'quvchisini qiynamaydi, fikrni erkin va sərbast turib taqdim etadi.

G'afur G'ulom tarjimalarining yana bir muhim jihati ularning tili sodda, ravon va o'zbekona ekanidir. Adib tarjima tilini sun'iy murakkablashtirmaydi, o'quvchini begona sintaksis va og'ir iboralar bilan qiynamaydi. Bu esa tarjimalarning keng kitobxonlar ommasiga yetib borishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati o'zbek badiiy tarjimasi tarixida alohida o'rin tutadi. Uning tarjimalari nafaqat jahon va Sharq adabiyotining nodir namunalarini o'zbek tiliga olib kirdi, balki ona tilining cheksiz badiiy imkoniyatlarini amalda namoyon etdi. G'afur G'ulom tarjimaga ijodiy jarayon, mas'uliyatli va halol mehnat sifatida yondashgan. Shu bois uning tarjimonlik merosi bugungi tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib qoladi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. Zuhridin Isomiddinov. "G'afur G'ulom tarjimalari". 2013-yil "Jahon adabiyoti" jurnali, № 5.
2. S. Mamajonov muharrirligida. "O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi" – T.: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1985-yil. 88-110-betlar.
3. "G'afur G'ulom ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati". Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. – T.: 2003-yil.

